

## POLISEMIYA HODISASINING UMUMIY TAVSIFI

**Obbosova Mukhtasarkhon Bakirali qizi**

*Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti Ta'lim-tarbiya nazaryasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2- kurs magistranti, O'zbekiston tumani 46-maktab o'qituvchisi. mukhtasarobbosova31@gmail.com +998 93 409 0997*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada polisemiya tushunchasi va bu borada o'zbek tilshunoslarining qarashlari to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, polisemiya, ko'p ma'nolilik, bir ma'nolilik, snekdoxa, metafora, metonimiya, vazifadoshlik, kinoya tushunchalarining terminologik ma'nosi o'rganilgan.*

Ko'p ma'nolilik, polisemiya — til birliklarining birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi. Ko'p ma'nolilik — ko'p qirrali va murakkab hodisa. Deyarli har bir so'zning lug'aviy ma'no taraqqiyoti aniq, individual yondashishni, izohlashni talab qiladi. Ko'p ma'nolilik ma'nosi faqat matnda bilinadi. Onamning ko'zi hali yaxshi ko'radi (a'zo); buloqning ko'zi, ignaning ko'zi (teshik); uzukning ko'zi (uzukka qo'yilgan tosh); taxtaning ko'zi (taxtadagi doira shakl).

Ko'p ma'nolilik ikki yo'l bilan hosil bo'ladi: 1) so'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida. Masalan, yer so'zi dastlab bir ma'noli bo'lgan, qolgan ma'nolar so'zning ma'no tarkibi taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan; 2) ko'p ma'noli so'zdan yoki ko'p ma'noli qo'shimcha vositasida so'z yasalishi natijasida. Ko'p ma'noli so'zlar qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu so'zlar ma'nosi o'zaro bog'langan, ya'ni ma'nolar orasida qandaydir semantik aloqa mavjud bo'ladi. Xuddi shu xususiyat ularni omonimlardan farqlaydi. So'zning Ko'p ma'noliligini, asosan, matn hal etadi: so'zning ishlatilish matni qanchalik rang-barang bo'lsa, bu so'z shunchalik ko'p lug'aviy ma'noni anglatadi.

Tildagi so'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma'noni ifoda etuvchi so'zlar bir ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan, kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g'oya, mimika, qobiliyat, fonema va b.

So'zlar ba'zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma'noni, gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda boshqa bir ma'no anglatishi mumkin. Masalan, pasaymoq so'zi gapdan tashqarida olinganda erga tomon yaqinlashmoq ma'nosini bildiradi. Gap tarkibida esa bilimi pasaydi, ko'rish sezgisi pasaydi kabi boshqa ma'nolarni bildiradi.

Bu so'zlar birdan ortiq leksik ma'no ifodalayotgani uchun ko'p ma'noli so'z sanaladi.

Demak, nutqdan tashqarida bir ma'no, nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi

Ko'p ma'nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so'z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina

ifodalaydi. Keyinchalik esa shu soʻz taraqqiyoti maʼno tufayli koʻp maʼnoli soʻzga aylanishi mumkin. Koʻp maʼnoli soʻzlarda 2 xil maʼno farqlanadi: 1) bosh (asl, oʻz) maʼno; 2) yasama (koʻchma) maʼno. Bosh maʼno soʻzning nutqdan tashqarida ifodalagan maʼnosi boʻlib, u boshqa maʼnolarning kelib chiqishiga asos boʻladi. Yasama maʼno bosh maʼnoning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, ogʻiz soʻzining bosh maʼnosi insonning tana aʼzosi, gʻorning ogʻzi, qopning ogʻzi yasama maʼno. Soʻzning yasama maʼnosi gapdagi boshqa soʻzlar bilan bogʻliq holda anglashiladi.

Maʼno taraqqiyoti qonunlariga maʼno koʻchishi, maʼno kengayishi, maʼno torayishi hodisalari kiradi.

Soʻz maʼnosining koʻchishi besh xil boʻlib, ular quyidagilar: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) kinoya; 5) vazifadoshlik yoʻli bilan koʻchish.

Metafora (grekcha *metaphora* – «koʻchirma») narsa va hodisalar orasidagi oʻxshashlik asosida ulardan birining ifodasi boʻlgan soʻzni ikkinchisini ifodalash uchun qoʻllashdir, metaforada shakliy oʻxshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. Shu tufayli ot, sifat va feʼl turkumlarida metafora yoʻli bilan koʻchish hodisasi mavjud. Masalan, tish, engil, pasaydi soʻzlarining maʼnosini kuzating: Tish: 1) odamning tishi (bosh maʼno); 2) arraning tishi (yasama maʼno). Yengil: 1) yengil eshik (bosh maʼno); 2) yengil taʼzim (yasama maʼno). Pasaydi: 1) samolyot pasaydi (bosh maʼno); 2) bilimi pasaydi (yasama maʼno).

Metaforaga quyidagilar asos boʻladi:

1) odamning tana aʼzolari nomlari: bet, yuz, burun, quloq, koʻz, lab, tish, elka, oyoq, ogʻiz kabi;

2) kiyimlar va ularning biror qismini nomlari: etak, yoqa kabi;

3) hayvon, parranda va hasharotlarning biror aʼzosining nomi: qanot, dum, tumshuq;

4) oʻsimlik va uning bir qismi nomi: tomir, ildiz;

5) qurol nomi: nayza, pichoq;

6) turli belgi, harakat nomlari boʻlgan soʻzlar: baland, past, olmoq, chaqmoq kabi.

Metonimiya – narsa, belgi va harakatlar oʻrtasidagi aloqadorlik asosida maʼno koʻchish hodisasi. Bu aloqadorlik oʻrin va vaqt jihatdan boʻladi. Metonimiyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud boʻladi. Quyidagi gaplardagi soʻzlarning maʼno munosabatini kuzating:

Sinekdoxa. Narsa yoki shaxs qismati nomini aytish bilan oʻzini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan maʼno koʻchish hodisasi. Masalan: Besh qoʻl barobar emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda oʻzimizdan qoladigan tuyogʻimiz... (A.Qodiriy)

Sinekdoxa qism nomini butunni ifodalash uchun (oqsoqol, oqsoch, jigar, tirnoq, tomir), kiyim nomini odam yoki boshqa biror tirik mavjudotni ifodalash uchun (qizilishton), qurol nomini shu qurolni ishlatadigan kishini ifodalash uchun (nayza, qilich, tigʻ, ketmon – «jangchi» maʼnosida), hayvonlarning biror aʼzosi nomini oʻsha hayvonni ifodalash uchun (bosh, tuyuq), meva nomini shu mevani beradigan daraxtni

anglatish uchun (yong'oq, olma, nok, uzum) qo'llash yoki, aksincha, butun nomini qismni anglatish uchun (qo'l so'zini «barmoq» ma'nosida) qo'llash kabi miqdor munosabatlariga asoslanadi.

Kinoya – so'zlarning aks ma'noda qo'llash hodisasi. Bunday ko'chishlar yozuvda qo'shtirnoqqa olinadi. Masalan: Shunaqa «do'stlar»ning kamroq bo'lgani ma'qul.

Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi – narsalarning bajaradigan vazifasining o'xshashligi asosida ma'no ko'chish hodisasi. Ma'noning bunday ko'chishi metaforadagi kabi o'xshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga ta'sir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslaniladi. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, o'q, siyoh, qalam kabi so'zlarning ma'nolaridagi ko'chish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilari orasida bajaradigan vazifa jihatdan o'xshashlikka asoslangan

Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Grafitti yozuv quroli paydo bo'lgandan so'ng, uni karandash qalam deb, keyin esa to'g'ridan to'g'ri qalam deb atay berganlar.

O'q - yoy o'qi; o'q - miltiq o'qi (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan o'xshashdir.

Siyoh so'zi tojik tilida «qora» degan ma'noni bildiradi. Yozuv quroli sifatida ishlatilgan suyuqlik qora rangda bo'lgani uchun siyoh deb nomlangan. Hozirgi kunda yozuv uchun qo'llanadigan turli rangdagi suyuqliklar (qizil, ko'k, yashil) ham vazifasining o'xshashligi asosida siyoh deb atalmoqda: qizil siyoh (asl ma'nosi qizil qora), ko'k siyoh (asl ma'nosi ko'k qora).

Metafora va metonimiya mahsuldor ko'chish yo'li, sinekdoxa, kinoya, vazifadosh asosida ma'no ko'chishi kam mahsul hodisalardir .

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, polisemiya tushunchalariga tilshunos olimlar o'ziga xos ta'riflar berishgan va ular xususida bir qator ilmiy ishlar yozib qoldirishgan. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, polisemiya – bir so'z yoki belgining bir necha ma'noga ega bo'lishi, ko'p ma'nolilik hisoblanadi. U tilshunoslikning eng muhim masalalaridan biri sanaladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBp\\_ma%CA%BCnolilik](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBp_ma%CA%BCnolilik)
2. U.Tursunov, N.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1992 yil.
3. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. II qism. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1980 yil.
4. A.G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. Toshkent. O'qituvchi nashriyoti. 1987 yil.
5. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent. O'qituvchi. 1995 yil.

6. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12866-bir-ma-noli-va-ko-p-ma-noli-so-zlar>